

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN LOGOPEDIYA FANIDAN
MALAKA SINOVIDA FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN LOGOPEDIYA FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari logopedlarini attestatsiyadan o'tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning logopediya fani bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti logopediya mutaxassislik fanidan 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig'i taqdim etiladi va umumiy test topshirig'ini bajarish uchun o'rta hisobda 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun

sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Nutqning tashqi bayoni buzilishlari (1 – 24 savollar)		
Dislaliya nutq nuqsoni	<i>-Dislaliya nutq nuqsoning mexanizmi, simptomatikasi kelib chiqish sabablari, displaliya shakllarini bilish;</i> <i>-tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, tovushlarni farqlash, tovushlarni nutqqa qo'yish davrlarini farqlay olish;</i> <i>- so'zlarni to'liq va aniq aytish, o'z nutqini nazorat qilish, mashq orqali tovushlarni mustahkamlash va tahlil qilish;</i> <i>-dislaliya nutq nuqsoning mexanizmi, simptomatikasi kelib chiqish sabablari.</i>	2
Dizartriya nutq nuqsoni	<i>- Dizartriya nutq nuqsoni o'rganilish tarixi va etiologiyasini bilish;</i> <i>-dizartriya nutq nuqsoning shakllari va uning klinik belgilarini farqlay olish;</i> <i>-nutq nuqsoning bartaraf etishga qaratilgan logopedik korreksion ish tizimini qo'llay olish;</i> <i>-dizartriyali bolalar bilan to'g'ri muloqot qilish, ota-onalar bilan ishlash o'z faoliyatini baholab, samarali metodlarni tanlay olish.</i>	5
Duduqlanish nutq nuqsoni	<i>- Duduqlanishning sabablari, turlari va belgilari haqida bilimga ega bo'lish, duduqlanishga xos nutq buzilishlarini aniqlay olish;</i> <i>-duduqlanishni bartaraf etishga mo'ljallangan mashqlarni qo'llay olish (nafas, relaksatsiya, ritmik nutq);</i> <i>-duduqlanuvchi bolaga psixologik yordam berish, ota-onalar bilan ishlash, mashg'ulotlar natijalarini tahlil qilib, yondashuvni takomillashtira olish.</i>	5
Rinolaliya nutq	<i>-Rinolaliya tushunchasi, sabablari va turlarini</i>	5

nuqsoni	<i>bilish, rinolaliyaga xos tovush buzilishlari va burun ohangini aniqlay olish;</i> <i>- tuzatishga oid mashqlarni qo'llay olish, rinolaliyali bolaga muloqotda yordam bera olish;</i> <i>-ota-onalar bilan ishlay olish;</i> <i>-davolash jarayonini kuzatib, natijalarni baholay olish.</i>	
Ovoz buzilishlari	<i>-Ovoz apparati va hiqildoqning ovoz hosil qilish funksiyasi (diafragma, o'pka, bronxlar, traxeya, halqum, hiqildoq, burun bo'shlig'i va uning yuz, peshana suyaklari orasida joylashgan qo'shimcha kovaklari) haqida bilish;</i> <i>-bolalar ovozinin rivojlanish davrlarini bilish;</i> <i>-pnevmografiya haqida bilish. Buyrak usti bezlari po'stlog'i funksiyasini ovozga ta'sirini o'rganish.</i> <i>-Organik ovoz buzilishlari, allergik laringit, periferik funksional buzilishlari tahlil qila olish;</i> <i>-bolalar ovozin rivojlantirish va tiklash metodikasi, ovozni tiklash bo'yicha logopedik mashg'ulotlar kursining mazmuni.</i>	4
Nutq tempining buzilishlari	<i>-Tayanch tushunchalar: battarizm, balneologiya, detsentralizatsiya, interverbal sekinlashuv, metronom, modulyatsiya, skandirlanish, taxilaliyalarni farqlash.</i> <i>-battarizm va polternni bartaraf etish bo'yicha logopedik ishni o'rganish;</i> <i>-taxilaliyani bartaraf etishda tarbiyalashni bilish;</i> <i>-taxilaliya va duduqlanishni omillari bo'yicha farqlash.</i>	4
2. Nutqning ichki bayonini buzilishlari (26 – 35 savollar)		
Afaziya nutq nuqsoni	<i>-Afaziya nutq nuqsonining kelib chiqish sabablari;</i> <i>-afaziya turini va og'irlik darajasini aniqlay olish, nutq, eshitish, o'qish va yozishni baholay olish;</i> <i>-nutqni tiklash bo'yicha mashqlarni tanlay olish va o'rgata olish, bemor va uning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qura olish;</i> <i>-boshqa mutaxassislar bilan ishlay olish, bemorning holatini tushunish va unga motivatsiya bera olish;</i> <i>-logopedik ilovalar va zamonaviy vositalardan</i>	5

	<i>foydalana olish.</i>	
Alaliya nutq nuqsoni	<i>- Alaliya nutq nuqsoning o‘rganilish tarixi;</i> <i>-alaliya tushunchasi, sabablari va turlarini bilish, alaliyaga xos nutq buzilishlarini aniqlay olish, alaliyaga xos nutq buzilishlarini tushunish;</i> <i>-alaliyali bolalar bilan muloqot o‘rnatish, otalalar bilan hamkorlikda ishlay olish, nutq rivojlanishidagi o‘zgarishlarni kuzatib, samaradorlikni baholay olish.</i>	5

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Test soni
I. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
1.1. Pedagogik-psixologik kompetensiyalar	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, kasbiy faoliyatda zarur pedagogik qobiliyatlar, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘shish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik jarayonni loyihalash (shart-sharoit, texnologiya, o‘zaro munosabatlar) mazmunini, model–loyiha–amaliyot ketma-ketligini, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mantig‘i va bosqichlarini, ta’lim muhitini loyihalashning tayanch shartlari hamda pedagogik dizayn turlarini bilishi va vaziyatlarda qo‘llay olishi	4
1.2. Bolalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash	– “Ilk qadam” dasturining maqsad va tamoyillarini, 0–7 yosh davrida bolaning rivojlanish bosqichlari hamda yosh xususiyatlarini, bolaga yo‘naltirilgan va differensial yondashuv hamda o‘yin asosida o‘qitish mantig‘ini, shuningdek oraliq/yakuniy kuzatishning maqsadi va tamoyillarini hamda “rivojlanish xaritasi”ning vazifasini bilish;	3

	– bola rivojlanish dinamikasini baholay olish, rivojlantirish maqsadlarini aniq belgilash va yondashuvlarni vaziyatlarda qo‘llay olish	
1.3. Metodik va texnologik savodxonlik	– maktabgacha ta’limda pedagogik faoliyatni loyihalashtirish asoslarini, innovatsion pedagogik texnologiya (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, syujet-rolli o‘yinlar, inklyuziv ta’lim, jismoniy faolligini oshirish, tasviriy va dizayn faoliyati, qurilish va konstruksiyalash mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va boshqalar)larni bilish va faoliyatga mosini tanlay olish; – maktabgacha ta’limni loyihalash va tashkil etish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarga baho berish va natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi	3
II. KASBIY STANDART		5 ta
2.1. Kasbiy standart	– kasbiy standart doirasida umumiy qoidalar, standartning maqsad va vazifalari, pedagogga qo‘yiladigan bilim–ko‘nikma–malaka talablari, uning mehnat vazifalari, baholanadigan ko‘rsatkichlar tizimi hamda yakunlovchi qoidalar mazmunini bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi; – kasbiy standart bo‘yicha talab etiladigan umumiy talablar, zarur bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni quyidagi yo‘nalishlarda egallashi zarur: rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, bolalar rivojlanishini kuzatish, oila bilan hamkorlik qilish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va faoliyati natijalarini tahlil qilib asosli mulohaza qila olishi.	5

Kognitiv ko‘nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab	8

		qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. M.Ayupova. Logopediya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2019
2. L.Muminova, M.Ayupova. Logopediya. O'qituvchi nashriyoti. Toshkent -1993
3. Shomaxmudova R.Sh., Mo'minova L.R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. O'qituvchi. T.: 1993-y.

4. Т.Б.Филичева “Логопедия Теория и Практика” Москва “Эсмо”, 2022 г.
5. Е.Ф. Архипова “Стертая дизартрия у детей” М; АСТ Астрел, 2007 г.
6. И.А.Смирнова “Логопедия иллюстрированный справочник” КАРО Санкт-Петербург 2022 г.
7. Л. С. Волкова “Логопедия” 2009 г.
8. Т.Б.Филичева, Н. А. Чевелёва, Г. Чиркина “Основы логопедии”
9. Акименко “Практикум по логопедии”
10. Z.Shamuratova “Logopediya”.O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi. Toshkent “Niso Poligraf” 2012
11. Z.M.Ahmedova, M.Yu.Ayupova, M.P.Hamidova “Logopedik o‘yin”. O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. “Faylasuflar” nashriyoti. Toshkent-2013
12. Sh.E.Taxtayarova “Tovushlardagi kamchiliklarni korrektsiyalashda maxsus zondlardan foydalanish” Toshkent-2016
13. R.Shomaxmudova, X.M.Po‘latova “Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish tizimi”. O‘quv-metodik qo‘llanma. Toshkent-2015
14. L.R. Mo‘minova, M.Yu.Ayupova “Bolalarda dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etish texnologiyasi” Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Toshkent-2017.
15. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 29-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 323 – son buyrug‘i.

VIII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Alixodjayeva G.S. Инновация в дошкольном образовании. Учебник. – Toshkent, 2024. – С. 284.
2. Muslimov N. va boshq., Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2024. – 120 b.
3. Qodirova F. va boshq., Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019. - 688 b.
4. Sodiqova Sh.A. va boshq., Maktabgacha ta’limda ta’lim va tarbiya texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
5. Xalikova U.M., Maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Fan va ta’lim” nashriyoti, 2022. -216 b.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. - 504 b.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.